

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

“TASVIRIY SAN’AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI” KAFEDRASI

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Amaliy san’at to’garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish  
texnologiyasi”**

**Ilmiy rahbar:  
Bajardi:**

**P.f..d. S.F.Abdullayev**  
“Tasviriy san’at va muhandislik  
grafikasi” ta’lim yo’nalishi  
Maxsus sirtqi  
3-“B” kurs bitiruvchi talabasi  
**Xudoyberdiyeva Surayyo**  
**Xushvaqtova**

**Navoiy-2009-2010**

Oliy o'quv yurti

\_\_\_\_\_ fakulteti \_\_\_\_\_  
Kafedra \_\_\_\_\_ yo'nalishi \_\_\_\_\_  
guruhi \_\_\_\_\_

**“Tasdiqlayman”**

Kafedra mudiri

\_\_\_\_\_ Kat. o'q. *Shodirov S.H.*

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_

### **MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO' YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba \_\_\_\_\_  
(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

“\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil kafedra majlisida ma'qullangan.

2. Bitiruv ishni topshirish muddati \_\_\_\_\_

3. Bitiruv ishni bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar \_\_\_\_\_

1 \_\_\_\_\_

2 \_\_\_\_\_

3 \_\_\_\_\_

4. Xulosalash – tushintirish yozuvlarning tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

## 6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchilar

| № | Bo'lim mavzusi | Maslahatchi<br>o'qituvchi<br>f.i.sh. | Imzo                 | Sana                   |
|---|----------------|--------------------------------------|----------------------|------------------------|
|   |                |                                      | Topshiriq<br>berildi | Topshiriq<br>bajarildi |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |
|   |                |                                      |                      |                        |

## 7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

| № | Bitiruv ishi bosqichlarinig novi | Bajarish muddati<br>(sana) | Tekshiruvchi o'tganlik belgisi |
|---|----------------------------------|----------------------------|--------------------------------|
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |
|   |                                  |                            |                                |

Bitiruv ishi rahbari:

*P.f.d. S.F.Abdullayev*

imzo

\_\_\_\_\_

Topshiriqni bajarishga oldim:

Bobonova Dilnavoz  
Mardiyevna

imzo

\_\_\_\_\_

Topshiriq berilgan sana “\_\_\_\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_yil

# **DAVLAT ATTESTASIYA KOMISSIYASINING RAISIGA**

Navoiy davlat pedagogika insttuti Pedagogika fakulteti “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” ta’lim yonalishi kunduzgi bo‘lim bitiruvchi kurs talabasi \_\_\_\_\_ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Bitiruv malakaviy ishiga rahbarining mulohazasi, kafedraning ishini himoyaga tavsiya etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

**FAKULTET DEKANI:** \_\_\_\_\_ **p.f.d. Abdullayeva SH.A.**

## **NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

“Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” kafedrasining bitiruv malakaviy ish haqidagi

### **XULOSASI**

Bitiruvchi kurs talabasi \_\_\_\_\_ ning

Mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kafedra yig‘ilishida muhokama qilingan va davlat attestasiya komissiyasiga himoya uchun tavsiya etiladi.

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_ **katta o‘qituvchi Shovdiron S.H.**

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH:**

**I-BOB.** Amaliy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati..

**1.1.** Amaliy san`t tarixi haqida umumiy ma`lumot .....

**1.2.** Amaliy san`t turlari haqida umumiy ma`lumot.....

**II-BOB.** Amaliy san`at to`garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi mavzusining tahliliy qismi .....

**2.1.** Ganchkorlik san`ati tarixi, unda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish.....

**2.2.** Gips rozetkalarining yasash usullari va ishlardan namunalar.....

**Umumiy xulosa**.....

**Foydalanilgan adabiyitlar**.....

## KIRISH.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yuksak umumiy madaniyatga, kasb-hunar ko'nikmalariga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, mantiqiy mushohada qilish hamda ijtimoiy hayotdagi muammolarning oqilona echimlarini topish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini odilona baholay oladigan kadrlar yangi avlodini shakllantirish, shuningdek, har tomonlama barkamol, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda mukammal o'zlashtirgan, mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutgan pedagogik g'oyani ilgari suradi.

Istiqlol tufayli o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan jamiyatimiz kun sayin demokratlashib, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlari tobora ko'proq mantiqiy mushohada qilish tamoyillariga asoslanmoqda. Ta'lim tizimi oldidagi davlat buyurtmasi O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning asosiy g'oyalarida o'z aksini topgan. Shu jihatdan olganda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tasviriy san'atni modernizatsiyalash o'zining ko'p qirrali maqsad-vazifasi bilan ajralib turadi va ta'lim tizimi oldiga bir qator aksiomatik vazifalarni ko'ndalang qilib quyadi.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida barkamol insonni tarbiyalash eng asosiy, kechiktirib bo'lmaydigan muhim vazifalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, faravon hayot asosini qurish deganidir" Shu jihatdan olganda, mamlakatimizda sog'lom avlod dasturi harakatining keng tus olgani, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor vazifani amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil Davlat suverenligini qo'lga kiritgan birinchi kunlaridanoq uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng islohotlar milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg'unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos "milliy modelni" hayotga tatbiq qilishga qaratildi. Jamiyatimizdagi fuqarolar tafakkurini yangilash, milliy o'zlikni

anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlarni o`zlashtirish orqali, o`quvchilarning iste'dodlari, qobiliyatlarini tadqiq etish, estetik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish davlat umummilliy siyosati darajasidagi masalalardan biri sifatida belgilab berilishi yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish uchun ta'lim-tarbiyaning barcha sohalarida, ularning omillari va vositalarini ishga solishni taqozo etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug`aniyevich Karimovning **”Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”** asarida, mamlakatimizda barqoror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida, amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o`zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o`sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo`jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqoror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo`lga kiritildi.

O`zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo`llarining aniq va to`g`ri ko`rsatib berilganligi ,bosh maqsad yo`lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo`lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o`zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat - milliy Iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o`z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko`rsatadi. Biroq, o`z o`rnida ta'kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, ma'lum ziddiyatli

jihatlar ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik taxdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o'zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo'jaligining yaxlit tizim sifatida barqoror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarining yana bir xususiyatli jihati - jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi. Jahon hamjamiyati bugungi kunda boshidan kechirayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining salbiy oqibati sifatida namoyon bo'ladi.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-Iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda, jahon miqyosidagi inqiroz oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olib, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, ushbu jarayonlarni pishiq hamda mukammal shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimizni taqozo etadi. Bu boradagi chora-tadbirlar Prezidentimiz I.A.Karimovning **«Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ,O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari »** nomli asarlarida batafsil bayon qilib berilgan. Asarda jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozning mazmun-mohiyati, namoyon bo'lish tahlilari, kelib chiqish sabablari, uning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo'lish ommillar tahlil qilib berilgan. Shuningdek, mamlakatimiz aholisi uchun g'oyat murakkab va og'ir bo'lishiga qaramay, 2008- yilda foydali bitimlar va yutuqlar baholanib, respublikamizdagi iqtisodiy sohadagi yanada kengroq foydalanish imkoniyatlari ko'proq amalga oshirish , O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon hamjamiyatida yuksak marra-larga chiqishning ishonchli yo'li sifatida, 2009- yilga mo'ljallagan iqtisodiy dasturning, quyidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlari bilgilab berilgan:

\* Mamlakatimizda qabul qilingan, 2009-2012 yillarda Jahon iqtisodiy inqiroz oqibatlarining oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha, qarshi dasturni amalga



oshirish, shu asosda iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlarini va iqtisodiyotning munosabatlarni rivojlanishini ta'minlash;

Tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni dinersifikatsiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan. Maqsad muhim tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish;

Qishloq turmushi sifatini va qiyofasini tubdan yaxshilashga, qishloq joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlatirish hamda mulkdorlik tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rnini va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqishga, fermer xujaligini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlarini keng ko'lamda amalga oshirish;

Mamlakatni modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishni muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy samaradorligini yanada rivojlantirish;

- Banklar ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh mablag'larini, tijorat banklaridagi depozitlarga jalb qilishni rag'batlantirish.

Prezidentimizning ushbu asarlarida belgilab berilgan, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning turmush darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish, eng avvalo jamiyatimiz a'zolari tomonidan ularning mazmun-mohiyatini teran va chuqur anglab etishlarini taqozo etadi. Shungdek O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining tavsiyasiga ko'ra, Prezidentimiz I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarlarini talabalar tomonidan chuqur va har tomonlama o'rganish, unda ko'rsatib o'tilgan dolzarb masalalarning tub mohiyatini anglash, 2009- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim

yo`nalishlarini bilish maqsadida, mazkur maxsus kursning joriy etilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Viloyatimizda yangi ish o`rinlariga zamin yaratilmoqda.**

O`tgan yili AQSH ning ipoteka bozorida boshlangan, bugungi kunda ko`plab iqtisodiyot tarmoqlarining faoliyatiga salbiy ta`sir ko`rsatayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlarini to`g`ri baholash va shu asosda unga qarshi samarali chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish har doimgidek dilzarb masala hisoblanadi. Yutrboshimizning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari” nomli kitobida ham Inqirozga qarshi choralar dasturi va uni amalga oshirish mexanizmlari aniq ko`rsatib berilgan edi.

Bugun mamlakatimizning “oltin sandig” deya ta`rif berilayotgan viloyatimizda Prezidentimizning 2008 yil 2-dekabrdagi Farmoni bilan “Navoiy” erkin industrial – iqtisodiy zona tashkil etilishi, kelajakda yangi ishlab chiqarish korxonalari sonining ortishiga va minglab muqim ish o`rinlari yaratilishiga zamin hozirlayotir.

Jahon tarixidan ma`lumki, birinchi erkin savdo zonasi, qadimiy Gretsiya davlatida tashkil etilgan. Madaniy ko`rinishdagi erkin iqtisodiy zona esa 1888 yilda Germaniyaning Gamburg shahar portida tashkil etilgan. Hozirda 135 davlatda 3000 ga yaqin bunday hudud mavjud bo`lib, ularda 68 million kishi ish bilan band hamda har yili qarib 500 milliard AQSH \$ miqdorida tovar aylanmasi mavjud.

Viloyatimizning sanoatlashgan darajasi, kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanganligi, qadimiy “BUYUK IPAK YO`LI” ning kesishgan nuqtasida ekanligi ya`ni xalqaro E-40 avtomagistralining mavjudligi hamda xalqaro havo karidorining joylashgani tufayli hudud shu erda barpo etildi va hozirgi kunda 564 gr er devor bilan o`ralib kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta`minlandi.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir mu-nosobatlar esa 1996 yil 25 aprtelda qabul qilingan, “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida” gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solingandi.

“NAVOIY”erkin industrial-iqtisodiy zonasida yaqin yillarda 100 ga yaqin xorij ishlab chiqarish korxona va fabrikalari qurilishi loyihalashtirilgan bo`lib, hozirgi kunda bir qator istiqbolli loyihalar bo`icha qurilish ishlari boshlanayotir.

2009 yilda “NAVOIY” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga 900 million AQSH \$ miqdorida 40 ga yaqin loyiha asosida xorijiy investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan.

Ayniqsa,2009 yilning 5-mart kuni Janubiy Koreyaning Seul shahrida yirik ishlab chiqarish korxonalari,kichik biznes va xususiy tadbirkorlar ishtirokida o`tkazilgan Prezintatsiyada 600 million AQSH \$ hajmidagi 30 ga yaqin istiqbolli lohiha shart-nomalari imzolangan edi.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov shaxsning ma`naviy sifatlariga, ularni tarbiyalash ijtimoiy va insonparvarlik ahamiyatiga alohida e`tibor berib: “Biron-bir jamiyat ma`naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma`naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o`z istiqbolini tasavvur eta olmaydi” deb alohida ta`kidlaydi.

### **Malakaviy bitiruv ishining maqsadi:**

Men o`z malakaviy bitiruv ishimda “Amaliy san`at to`garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi” shu mavzuli ganchkorlik haqida umumiy ma`lumotlar berishni, ganchkorlik ishlarining usullarini bayon etishni va ganchkorlikka doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldimga maqsad qilib qo`yaman.

### **Malakaviy bitiruv ishining vazifalari:**

–bu ganchkorlik mavzusini o`rgatishda, maktab o`quvchilari uchun uning juda oddiy usullardan foydalanib bilim va ko`nikma berish.

– ganchkorlik mavzusini o`tishda innovatsion texnologiya usullaridan o`rinli foydalana olish orqali bilim berish

**Malakaviy bitiruv ishituzilishi:** kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 49 sahifani tashkil etadi.

### **Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligi:**

–Maktab o`quvchilarining amaliy san`at darslarini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida “amaliy san`at” fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi;

– Umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san`at darslarida ganch o`makorligi darslarini o`tishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlandi;

### **Tadqiqot ishimizni yozishda qo`yidagi:**

Analitik tahlil, qiyosiy tahlil – pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, tasviriy san`atning zamonaviy metodlaridan unumli foydalana oldik.

## **I-BOB Amaliy san`atning, hozirgi kunda tutgan o`rni va ahamiyati**

### **1.1. Amaliy san`t tarixi haqida umumiy ma`lumot**

O`zbek xalqining ko`p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati turlari bor va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O`zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemislligi va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo`lsak, o`zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishiing guvohi bo`lamiz.

O`lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berishi usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo`lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo`lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg`otadi. Shakl va ranglarning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u, o`z navbatida, odamlarning kundalik turmushlaridan o`rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo`ldi. O`zbekiston va umuman O`rta Osiyo xalqlarining bizgacha etib kelgan san'at asarlari orasida naqshlar asosida yaratilgan badiiy asarlar alohida ko`p sonni tashkil etadi. Boshqa san'atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko`pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor.

Ma'lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga xosdir. Insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori

takomil darajasida ijro etish imkoni yo`qligi avvaldan ma'lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o`zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hych bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko`tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo`ladi.

Tasviriy san'atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil O`zbek milliy bezak san'atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo`lganki, hozirda jahonga mashhur me'morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, ganchkorlik, hattotlik, toshtaroshlik va Boshqa turdagi san'atlarning ajoyib darajada uyg`unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Toshkent, qo`qon va Boshqa shaharlardagi me'morchilik va xalq amaliy bezak san'ati yodgorliklari o`tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san'at asarlarining namunalari bo`lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyatining durdonalaridan bo`lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak san'ati kishilarning ma'naviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham O`zbek xalq amaliy san'ati kishilarni badiiy, axlohiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mavjud barcha san'at turlari o`z o`quvchisiga, tinglovchisiga yoki tomoshabinga o`tkazadigan badiiy, hissiy, ruhiy ta'siri orqali bilim bepadi va tarbiyalaydi. Shu o`oknda amaliy bezak san'ati turlarining fazilatlarini juda ham o`ziga xos bulib, ularni Boshqa hych narsa bilan almashtirib bo`lmaydi. Ya'ni, bunday san'at asarlari ayni chog`da ham badiiy, ham amaliy vazifalarni bajara olishi ularning xalq orasida keng tarqalishiga sabab bo`lgan.

## **1.2. Amaliy san`at turlari haqida umumiy ma`lumot**

Yaqin o`tmishda o`zbek amaliy bezak san'atining eng rivojlangan ganchkorlik, ganchkorlik, yogh`och, tosh va suyak o`ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik,

zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo`yrachilik kabi turlarining o`ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san'atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarida nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo`qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

Bunday holat hozirgi kunda san'atkorlar, xalq ustalari, muallimlar va san'at havaskorlari oldiga amaliy bezak san'atini saqab qolish, ularni har tomonlama o`rganish va rivojlantirish, yosh avlodga san'at sir-asrorlarini o`rgatish orqali o`rinbosarlar tayyorlash san'at asarlarini keng targ`ib qilish orqali jamoatchilikning estetik didini, madaniy darajasini yanada yuqori bosqichga ko`tarilishiga erishish vazifalarini qo`yadi.

Bu maqsadlar yo`lida olib boriladigan ishlar xalq ustalari, san'atkorlar uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, yoshlarning badiiy ta'lim olishlari, san'atlarni egallashlarini tashkil etish va to`g`ri ilmiy-metodik yo`nalishda olib borish, san'atkor-pedagoglar tayyorlashni yo`lga qo`yish, tegishli ilmiy tadqiqotlarni olib borishdan iborat bo`lishi kerak.

San'atkorlarni targ`ib qilish o`choqlari sifatida maktablar, klublar, madaniyat saroylari, uylari, pionerlar va o`quvchilar saroylarida tashkil etiladigan to`garaklar alohida ahamiyatga ega.

Mazkur kitobda masalaning shu jihatiga batafsil e'tibor qaratilgan. Muallif o`zining ko`p yillik ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga asoslangan holda xalq amaliy bezak san'atining kelgusi rivojini ta'minlash yo`llari va usullari haqida aniq tavsiyalar beradi va o`z xulosalarini bayon etadi.

Amaliy bezak san'atlarini o`rgatish mashg`ulotlarida xalq ustalari yaratgan asarlarining beqiyos ma'naviy qiymatlarini namoyish etish orqali yosh avlodda estetik didni shakllantirish, ularga zarur bilimlar va axloqiy tarbiya, berish, mehnat, ko`nikma va malakalarini rivojlantirish, kasb tanlashga ruhiy va amaliy tayyorlash vazifalari e'tiborda turadi.

O'zbek amaliy bezak san'ati turlarining ko'pligidan kelib chiqadigan o'ziga xos ta'lim va tarbiyaviy imkoniyatlarni diqqat bilan o'rganish juda qiziqarli natijalar beradi.

Birinchidan, yakka kishi hych qachon amaliy bezak san'atining hamma turlarini to'liq o'zlashtira olmaydi. Lekin, umumiy darajada tanishish shaxsning yuqori madaniy darajaga erishuvida zarur shartdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu san'atlarni o'rgatish ikki xil shaklda amalga oshirilishi mumkin: umumiy nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish yoki biror turini amaliy jihatdan to'liq egallash.

Ikkinchidan, har bir murabbiy — usta o'zi chuqur egallagan san'at turini shogirdlariga chuqur o'rgatish bilan cheklanishi mumkin.

Uchinchidan, har turli mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda ushbu san'atlarning u yoki bu turi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etishda tanlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Lekin har qanday bilim va hunar o'rganishdan asosiy maqsad kelgusida amaliy, zarur vazifalarni hal etishga qaratilishi lozim.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar bajara-digan har turli topshiriqlar ularning botanika, biologiya, tarix, adabiyot va boshqa fan sohalaridagi bilimlaridan foydalanishni taqozo etadi, ya'ni bu mashg'ulotlarda predmetlararo bog'lanishni g'isobga olish zarur.

Bolalikda bo'lgan qiziqish bora-bora bir umrlik kasbga aylanish onlarining uchrashi bilan bizga, yoshlikda birorta san'at bilan qiziqib shug'ullangan bo'lib, lekin keyinchalik boshqa kasb egasi bo'lib ketish hollari ham ma'lum. Bunda har ikki holda ham san'at olamining kishi shaxsini takomillashtirishdagi vazifasi yetarlicha bajarilgan deb hisoblash mumkin. Chunki, har ikkala holda ham estetik did va madaniy darajaning zarur taraqqiyotiga erishiladi.

Xalq amaliy bezak san'ati an'analari tarixda avloddan-avlodga o'tib kelish bilan birga taraqqiyotning yangi sifatiga ega bo'lmoqda, bu jarayon, ayniqsa, hozirgi qayta qurish davrida yanada yuqori samaralarga erishuv imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.



Ushbu qo'llanma hozirda Respublikamizdagi xalq amaliy san'at to'garaklarida san'at sirlarini o'rganayotgan o'quvchilarga hamda to'garak rahbarlariga zarur bo'lgan nazariy, amaliy, metodik va tarixiy materiallarni o'z ichiga olgan.

Kitobda Xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga hamda o'tkazishga bo'lgan zarur shart-sharoitlar, o'qitishning nazariy-metodik asoslari hamda dasturlar bayon etilgan, atamalarning izohli lug'ati berilgan.

Kitobda keltirilgan o'zbek amaliy bezak san'ati airim asarlarining tasvirlari ruznomalar, oynomalar, kitoblar hamda M. T. Oybek nomli O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanayotgan buyumlar va tasvirlar, O'zTAG fotoarxivi va boshqa manbalardan olindi.

Mazkur qo'llanmaning yozilishiga o'zining qimmatli maslahatlari bilan qatnashgan Sanobar Shodieva, Mahmud Usmonov, Vladimir Sergeevich Kuzin, Po'lat Zohidov, Anvar Ilhomov, Saidqosim Usmonov, O'tkir Tohirov, O'tkir Obidov va boshqalarga muallif o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

Ushbu o'quv-metodik qo'llanmaning mazmunini yanada boyitish borasidagi ishlar bundan keyin ham davom ettirilishi tabiiy. Shuning uchun muallif kitobxonlardan ushbu kitob haqidagi o'z taklif va muloqazalarini yozib yuborishlarini so'raydi, bu, kelgusida kitobni qayta ishlashga katta yordam bo'lur edi.

## **II-BOB. Amaliy san'at to'garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi mavzusining tahliliy qismi**

### **2.1. Ganchkorlik san'ati tarixi, unda ishlatiladigan asbob-uskunalar va ulardan foydalanish**

Ganchkorlik qadimiy san'at turlaridan. U Sharq mamlakatlari, xususan, O'rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg'oniston va boshqa mamlakatlarda taraqqiy etgan. Ayniqsa, O'rta Osiyoda yaratilgan asarlar badiiyligi, kompozitsi-yasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi. Ganch naqshlar O'zbekistondagi ko'pgina obidalarga ko'rkamlilik, go'zallik baxsh etib turibdi. U Samarqand, Buxoro, Toshkent, Qo'qon, Mar-g'ilon, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi tarixiy obidalarni qurish va bezatishda ishlatilgan.

Ganch o'ymakorligi san'ati asrlar davomida rivojlangan. Bu san'atning qadimgi, o'rta asrlardagi va XX asrdagi rivoji bir-biridan ancha farq qiladi. Qadimgi ganch o'ymakorligi hajmiy bo'lib, unda realistik tasvir ustunlik qiladi. Ularda, ko'pincha, odamlar, hayvonlar, qushlar tasvir-langani. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchning ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'a, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar.

III asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxshadan VII—VIII asrlarga oid ganch o'ymakorligi namunalari topilgan. Ularda qushlar, hayvonlar, baliqlar, o'simliksimon va geometrik shakllar tasvirlangan.

X—XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va nam tegmaydigan tashqi qismida ham qo'llanildi. Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar paydo bo'ldi va ko'pgina binolarda qo'llanila boshladi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobdan topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi.

XIV—XVIII asrlarda ham binolarning ichki qismlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Ganchkorlikning gullab-yashnagan davri XVIII asrning oxiri — XIX asrning boshlari bo'ldi. XIX—XX asrlarda buyuk ganch o'ymakorlaridan Abdurahim Hayotov, Usta Murod, Usta Fuzayl, Usta Hayot Nosir, Usta hoji Hafiz, Usta Nasrulloboy, Usta Abduljalil, Usta Azim, Usta Omonullo, Usta Shamsiddin G'ofurov, Usta Ibrohim, Usta Savri, Usta Abdufattoh va boshqalar faoliyat ko'rsatdilar.

XX asr boshlaridagi ishlarda o'yma relyefli mayin uslub paydo bo'ldi. Rangli ganchlar, bo'yoqlar, naqsh va tasvirlar qo'llanila boshladi.

1913-1914-yillarda Buxoroda Sitorai Mohi Xosa qurildi. U ganch o'ymakorligi bilan bezatildi. Oq uy (mehmonxona)ni o'sha davrdagi ganch o'ymakorligining ajoyib namunasi desa bo'ladi. Bunda oyna ustida ganch o'ymakorligi bajarilgan. U o'zining nozikligi, jimjimadorligi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U o'sha davrda eng ko'zga ko'ringan ganchkor ustalardan edi.

1918— 1920-yillarda hunarmandlar komiteti va Toshkent o'lkashunoslik hunarmandlar tashkiloti o'quv-namunaviy ustaxonalari va hunarmandlik muzeyi tashkil etdi. O'zbek ustalari 1937-yilda Parijda «San'at va texnika — hozirgi kunda» degan ko'rgazmada ikkita «Gran pri», bitta oltin medal va ikkita kumush medal bilan mukofotlandilar.

1947-yil Toshkentda me'mor A.Muxamed-shin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu binoni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi.

O'zbekiston me'morchiligiga katta xazina bo'lib qo'shilgan O'zbekiston Davlat opera va balet katta teatri 1947-yil akademik arxitektor Aleksey Shchusevning loyihasi va rahbarligi ostida qurib bitkazildi. Shchusev O'zbekiston viloyatlaridagi ganchkor ustalarni yig'ib, ular oldiga ikki muhim vazifa qo'ydi: avvalo, teatrning zallari har bir viloyatning o'ziga xos milliy uslubi asosida bezalishi, ikkinchidan, bezalgan xona teatrning arxitektura badiiy obraziga mos tushishi kerak edi. Teatrning Xiva, Termiz zallari qadimda ishlatiladigan

ganchkorlik uslubida ishlandi. Buxoro, Toshkent, Farg'ona va Samarqand zallari esa zamonaviy xalq an'anasiga mos bo'lgan ganch o'ymakorligi bilan bezatildi.

1952-yil Toshkentdagi P.P.Benkov nomli badiiy bilim yurtida xalq amaliy san'ati bo'limi ochildi. Bu yerda Davlat mukofoti laureati Usta Shirin Murodov, Usta Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov ganch o'ymakorligidan dars berdilar. 50-yillardan boshlab xalq amaliy san'ati turlari - naqqoshlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakoriigi kabilar turg'unlikka uchradi. «Tez va arzon quraylik, ortiqcha hashamlardan qochaylik» shioriga ko'r-ko'rona amal qilindi. Natijada ba'zi naqqosh ustalar va ularning shogirdlari hunarlarini tashlab, boshqa ishga o'tib ketdilar. Lekin ustozlar tushkunlikka tushmadilar. Ular maktablarda, o'quvchilar saroylarida amaliy san'at turlari sirlarini yoshlarga o'rgatishni davom ettirdilar.


Farg'ona naqqoshlik maktabining ko'zga ko'ringan ustasi Saidahmad Mahmudov 1963- yil Qo'qondagi shahar o'quvchilar saroyida yosh naqqoshlar to'garagini ochdi. 1967-yildan so'ng binolarni milliy bezash rivoj topa boshladi. Ayniqsa, naqqoshlik rivojlana boshlandi. Ustalarining shogirdlari ham shuhrat qozona boshladilar. Ganchkor Tohir Sharipov, naqqosh M.To'rayev ochgan to'garaklarda yuzlab yoshlar xalq amaliy san'ati sirlarini o'rgana boshladilar. To'garak a'zolarining ishlari Italiya, Yaponiya, Chexoslovakiya, Kubadagi ko'rgazmalarda namoyish etilib, ular oltin, kumush va bronza medallarga ega bo'ldilar.

O'quvchilar o'rtasida ko'rgazmalar, tanlovlar, olimpiadalar va boshqalar tashkil etildi. Ganch o'ymakorligi to'garagi a'zolarining ajoyib ishlari Amerika, Yaponiya, Kanada, Chexoslovakiya, Germaniya va ko'pgina davlatlarda namoyish etildi.

M.Usmonovning shogirdlari Mirziyod Karimov, Abdurahmon Sultonov, Mirvohid Usmonov, Anvar Po'latov, Mirmahmud Rahrmonov, Habibiddin Murodov, Mo'min Sultonov, Faxriddin Hamdiyev, Ziyovuddin Yusupov, Rauf Ibodov, Umar Tohirov, Yusuf Odilovlarni bugungi kunda xalqimiz yaxshi biladi.

O'zbekiston ganch o'ymakorligi san'ati yuksak darajada rivojlanib qardosh xalqlar taraqqiyotiga ham katta ta'sir etmoqda.

1978-yilda O'zbekistonda «Usto» xalq san'ati birlashmasi tashkil etildi. Bu xalq amaliy san'atining rivojlanishi, ustalarning ijodiy mehnatini tashkil etish va tayyorlangan buyum-larni sotishda hamda ustalarning shogirdlar tayyorlashida muhim rol o'ynadi.



Afrosiyob. Gumbazli binoning ichki bezaklari.

Somoniylar saroyidagi idora qismidagi bezaklar (IX asr. Rempel M.I.chizmasi).

Respublikamizning mustaqillikka erishishi tufayli o'tmishda yaratilgan bebaho ma'naviy boyliklarni, madaniy merosni, ganchkorlik san'atini chuqur o'rganib, kelajak avlodga etkazish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

O'zbekistonda Badiiy akademiya, hunarmandchilik uyushmalari, litseylari va kollejlari, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomchilik va dizayn institutining ochilishi, chet ellarda turli ko'rgazmalar tashkil etilishi amaliy san'atni va hunarmandchilikni rivojlantirishga katta turtkibo'ldi.

1994-yil 7—15-oktabrda Pokistonning Islornobod shahrida islom mamlakatlari hunarmandlarining birinchi xalqaro festivali bo'lib o'tdi. Bu festivalga O'zbekiston, Qozog'is-ton, Tatariston respublikalari hunarmandlari ishlari bilan qatnashdi. O'zbekiston hunarmandlari — Fatxilla Jumayev, Ortiq Fayzullayev, Shokirjon Komilovlar konkurs g'oliblari deb topildilar.

Ulug' muhaddis Imom al-Buxoriy tavallu-dining 1225 yil munosabati bilan 1998-yil 24-oktabrda Samarqandda Imom Buxoriy maqbarasi majmuasi qayta tiklanib, bezatildi. Unda O'zbekistonning turli viloyatlaridan kelgan xalq amaliy san'ati ustalari o'z san'atlarini namoyish qildilar.


Ustalarimiz Respublika Oliy Majlisi, shahar hokimligi, Temuriylar muzeyi, masjid, madrasa va boshqa binolarni zamonaviy o'yma ganch bilan bezadilar.

O'zbekistonda o'ziga xos ganchkorlik maktab-lari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir. Xorazm me'morchiligida geometrik naqshlarga keng o'rin berilgan bo'lib, ular boshqa viloyatlarga qaraganda o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'simliksimon naqshlar spiral shaklida aylanmaligi, dinamikligi bilan farq qiladi. Islimiy naqshlar ko'pincha yaxlit-yaxlit turunj, madohil, qalampir, bodomga o'xshash tanob shakllarimng takrorlanishidan hosil bo'ladi. Ba'zi hollarda turunj, madohil tanoblari o'rniga yulduzsimon girihlar ham ishlatiladi. Islomiy naqshlarda novda juda ko'p ishlatilib, marg'ula, barg, uch barg, shukufta, oygul, no'xot gul, kurtak va g'unchalar ko'p qo'llaniladi.

Xiva ganch korligidagi eng xarakterli tomonlardan biri — naqshlarning erkin va harakatchanligi, jo'shqinligidir. Bu maktab ustalari naqshlarni ko'p hollarda ko'k va yashil rang bilan bezaganlar. Ro'zimat Mashari pov, Karimbergan Rahimov, Karimbergan Polvonov, Yusuf Xudoyberganov, Bekjon Yoqubov, Odamboy Bobojonov, Odam-boy Yoqubov kabilar Xorazm ganchkorlik mak-tabini namoyandalaridir.



Buxoro ganchkorlik maktabi bu sohada eng mashhur. Buxoro maktabi ishlari o'yma ganchlarning yirikligi, mayinligi, jozibadorligi va boshqa tomonlari bilan ajralib turadi. Buxoro ganchkorlik maktabining eng yirik namoyan-dalaridan biri akademik Usta Shirin Murodovdir. Buxorolik Usta Safar, Usta Adis, Usta Savri, Usta Isom, Usta Ikrom, Usta Jo'ra, Usta Qurbon Yo'ldoshev, Usta Ibrohim Hafizov, Usta Nazrullo Yodgorov, Usta Hayot Nosirov va boshqalar mamlakatimizda taniqlidirlar.



Buxorodagi Sitorai Mohi Xosa. Oq uyning ichki bezaklari

Toshkent ganchkoriik maktabi ham o'ziga xos. Bu maktabga xos naqshlar nozikligi, aniq simmetrik taqsimga egaligi, jozibadorligi bilan ajralib turadi. Toshkent ganchkorlik maktabi namoyandalari safida Usmon Ikromov, Toshpo'lat Arslonqulov, Mahmud Usmonov, Anvar Po'latov, Mirmahmud Rahmatov, aka-uka Abdurahmon va Mo'min Sultonovlar, Hayot Abdullayev, Ziyadulla Yusopov, Umart Tohirov, Mirvohid Usmonov kabi qator yetuk ustalar bor.

Samarqand butun dunyoda mashhur eng qadimiy shaharlardan bo'lib, u yerda iishlangan naqshlarning har biri o'ziga xos. Samarqand ganchkorlik maktabi namoyondalari Usta Anvar Quliyev, Usta Tursunboy Ismoilov, Shamsiddin G'ofurov, Quli Jalilov va boshqalardir.

***Ganch o'ymakorligi turlari.*** Har qanday binoni bezashda avval uning tuzilishiga mos ganch o'ymakorligi turlarini tanlash, qo'llash muhim ahamiyatga

ega. Kichik xonada mayda tekis o`yma va unga mos bo`lgan pardoz turi, katta mehmonxonalarda esa yirik o`yma va shunga mos naqsh qo`llaniladi. Ganch o`ymakorligi yirik o`yma, chuqur o`yma, yassin o`yma, qirma zaminli ko`zguli o`yma, zaminini rangli o`yma, chizma pardoz, panjarasimon o`yma, zanjir hajmli o`yma turlaridan iborat. Bundan tashqari, ganj o`ymakorligi turlari zaminli va zaminsiz o`ymalarga bo`linadi.

Eng ko`p qo`llaniladigan o`yma – yassi o`ymadir. U intererda ko`p qo`llaniladi. Katta bo`lmagan xonalarda o`ymaning chuqurligi 1-1.5 sm bo`lib, unga har xil pardoz turlari beriladi.

O`yma naqshning zamini umumiy yuzaning 30-60 foyizini egallaydi. Unga



Xalq ustalari Shamsiddin G'ofurov  
va Usta Shirin Murodov

Joyiga moslab pax pardoz, choka pardoz, lo`la yoki tabaqa pardoz beriladi

***Qirma – o`yilgan joylarni rangli ganch qorishmasi bilan to`ldirishdir***



O'tmishda ustachilik asboblari muqaddas sanalgan. Ustalar o'z asbob-uskunalarini shogirdlariga meros qoldirganlar. Bu milliy an'ana zahirida chuqur ma'no bor.

Xalqimiz: «Ish quroling soz bo'lsa, mashaq-qating oz bo'lur», deydi. Shogird og'irini yengil, mushkulini oson qiladigan ish qurollarini hamisha shay qilib qo'yishi kerak. Uskunani biror ishni qilib bo'lgandan so'ng bir chekkaga uloqtirib, zang bostirib qo'ymaslik, o'tmas bo'lib qolsa charxlab, o'tkir qilib qo'yish, buzilsa darhol tuzatish, maxsus joyda saqlash kerak.

Ish sifati va samaradorligini oshirishda uskuna va jihozlar katta ahamiyatga ega. Ganchkorlikda ishlatiladigan qurollar, kiyim-kechak va boshqa zarur anjomlar mehnat estetikasiga hamda ustaxona qoidalariga rioya qilingan holda joylashtiriladi. Ustaxona har doim toza, saran-jom-sarishta bo'lishi uchun shogird jon kuydirishi lozim. Ustaxonada anjomlarning saranjom-sarishta saqlanishi samarali ishlash uchun qulay bo'ladi. Usta va shogird asbob-uskunalaridan unumli, samarali va ehtiyotkorlik bilan foydalanishni bilishi zarur.


Ganchkorlikda o'ziga xos asbob-uskunalar ishlatiladi. Naqsh kompozitsiyalar chizish uchun chizg'ichlar, pargor, yumshoq va qattiq qora qalamlar, daftar, albom, o'chirg'ich, shaffof qog'oz, oq qog'ozlar kerak bo'ladi. Ganch qorish uchun sirli tog'ora, ganchni clash uchun elak, katta va kichik chelaklar, ruletka, andava, ganch yuzasini ishlash uchun mayin latta, sovun, o'lchov asboblari, maxsus qo'lqopcha, qum qog'oz, simlar va boshqalar darker. Asboblarni charxlash uchun qayroq tosh ishlatiladi, ganch o'yish va pardozlash uchun jarrohlik pichog'i, iskana, shuturgardon (tuyabo'yin), qalamtoq qalami, minqor, morpech qalamlar, puxqalam, patak bindi, iskana, lo'lakash, zamin qalam, nova, pilta qalam, dudmal qalam va boshqa asboblari ishlatiladi.

Ganchkorlar qadimda 20 ga yaqin asbob ishlatganlar. Hozirda bunday asboblarni tayyorlaydigan temirchi ustalar juda oz qolgan. Shu bois ustalar, asosan, jarrohlik pichog'i (skalpel), minqor, iskana va shuturgardon asboblari ishlaydilar. Maktabda ganchkorlikni o'rganish uchun, dastawal, jarrohlik pichog'i

va iskana kerak bo'ladi. Ganch o'yish va pardozlash uchun ishlatiladigan asboblardan batafsil tanishib chiqamiz.

Jarrohlik pichog'i (skalpel) — po'latdan yasalgan, har xil o'lchamli asbob. Undan hozir ganch o'ymakorligida keng foydalanilyapti. O'ymaning katta yoki kichikligiga qarab, ustalar har xil o'lchamdagisim ishlatadilar. Uni avval charxlab, dastasini qo'lga botmaydigan qilish uchun ikki tomoniga yupqa faner qo'yib, izolenta o'rab, keyin ishlatadilar. Bu pichoq gulni chizishda, kesishda, o'yishda va pardoz berishda ishlatiladi.


Iskana — duradgorlik asbobi, uning uchi og'ma holatda kesik bo'lishi ham mumkin. Iskanalar har xil kattalikda bo'ladi. Kichigi mayda o'ymalarda, kattasi yirik o'ymalarda ishlatiladi. Iskana temir sterjenining uzunligi 7 sm dan 10 sm gacha bo'lishi mumkin. Iskanani maktab ustaxonasida ham yasab olish mumkin.




Ganch taxta quyish uchun kerakli anjomlar: 1. Elak, 2. Sirli tog'ora, 3. Chelak, 4. Andava, 5. Qolip

Shuturgardon — ganch o'ymakorli-gidagi asosiy o'yma asbob, o'qli (sterjenli) bel qismi tuya bo'yniga o'xshash. Shuning uchun uni «shutur-gardon», ya'ni «tuyabo'yin» deb atashadi. U po'latdan yasalgan, keskich qismining tig'i uchli bo'lib, teng yonli uchburchakka o'xshaydi. Shuturgardon naqshlarning kontur


chiziqlarini kesishda va o'ymali relyefga pardo berishda ishlatiladi. O'ymaga qarab, katta yoki kichik shuturgardon tanlanadi. Katta shuturgardon naqshlarning konturlarini o'yishda va chuqur zaminli o'ymalar-da, o'rtachasi o'ymaga pardo berishda, kichigi esa mayda o'yma ishlarini bajarishda ishlatiladi.



Ganch taxta tayyorlashda ishlatiladigan qolip.



Ganch o'ymakorligi asboblari: 1. Jarrohlik pichog'i; 2. Iskana; 3-4. Shuturgardon; 5-6-7. Pux qalam; 6. Minqor; 9-10. Dudmal qalam; 11. Morpech; 12. Lo'lakash.



Ganch o'ymakorligida asboblarning o'lchamlari: 1. Shuturgardon; 2. Qalamtoq; 3. Minqor; 4. Morpech; 5. Pux qalam; 6. Iskana; 7. Patak binni.

#### MINQOR

|       | Katta   | Kichik |
|-------|---------|--------|
| $l_1$ | 30-25   | 20-15  |
| $l_2$ | 130-110 | 100-80 |
| $l_3$ | 120     | 100    |
| b     | 15      | 10     |
| d     | 25-30   |        |

#### SHUTURGARDON

|       | Katta   | O'rta | Kichik |
|-------|---------|-------|--------|
| $l_1$ | 120-100 | 90-70 | 50-40  |
| $l_2$ | 25      | 20    | 15     |
| $l_3$ | 120     | 110   | 100    |
| b     | 40      | 30    | 20     |
| c     | 50      | 40    | 30     |
| d     | 25-30   |       |        |

Minqor va shuturgardonning o'lchamlari ko'rsatilgan jadval.

Pux qalam - xanjarga o'xshash, ikki tomonga qiyalab ketgan o'tkir uchli (faqat uchi ilmoqqa o'xshash, qayrilgan bo'ladi) asbob. Keskich qismining uzunligi

10 sm dan 18 sm gacha uzunlikda bo'lishi mumkin. Pux qalam egri sirtlarni tekislashda, stalaktitlar bilan ishlashda, pardozda navo ochishda ishlatiladi. Bu asbob ham har xil kattalikda bo'ladi.

Minqor — uzun o'qli, uch qismiga uchbur-chak shaklidagi o'tkir kurakcha 90° o'rnatilgan bo'lib, o'yma zaminini tozalashda, tekislashda va chuqurlashda ishlatiladi.

Qalamtoq — tuzilishi xanjar ko'rinishida bo'lib, keskich qismi ikki tomonga qiyalab o'tkirlangan. U tirnab chiziq chizishda, o'yishda va ganchni teshishda ishlatiladi.

Morpech qalam — o'yilgan naqshlarning chetlariga yarim doiralar, bo'rtma hosil qilish, o'rovlarni qirqish hamda relefga lo'la pardoz berishda, o'yilgan naqshlarning chetlariga zanjira, hoshiya atroflariga turli yarim doiralar, nuqtalar chiqarishda ishlatiladigan asbob. Morpech qalam tuzilishi jihatidan yumaloq bo'lib, sirt kesish uchun ishlatiladi.

Lux — yarim silindr sirtlarni hosil qilishda ishlatiladigan asbob. Tuzilishi jihatidan keskich qismi yapaloq, yassi shaklda bo'lib, uchi 90° buklangan bo'ladi.

Qalam — xanjar shaklidagi asbob. Ba'zilarining uchi qayrilgan bo'ladi, axta yordamida tushirilgan naqshlar o'chib ketmasligi uchun tirnab chizib chiqishda ishlatiladi.

Pilta qalam — uning uchi qayrilgan bo'ladi. U yarim aylanadigan relyeflar hosil qilishda ishlatiladi.

Patak binni — shuturgardonning bir turi. U raxlarni uchli qilib kesishda va o'yishda ishlatiladi.

Nova — iskana ko'rinishida bo'lib, uchi egri, ilmoq singari buklangan, o'tkir uchli asbob. Relyeflarni yumaloq qilib kesishda ishlatiladi.

Shukufta — aylantirib teshik ochishda va chiziq chizishda ishlatiladi.

Lo'lakash — umumiy ko'rinishi yarim yumaloq, buklangan, uchi yarim doira shaklida. Asosan, lo'la pardozda ishlatiladi. Bu asbob o'ymaning yirik yoki maydaligiga qarab, har xil o'lchamda bo'ladi.

Sharafa qalam — uchi qayrilgan iskana. Mayda muqarnaslarni o'yishda ishlatiladi.

Ganch o'ymakorlik asboblari maxsus qalamdonda olib yurgan ma'qul.

O'ymani sifatli va tez bajarish — ishlatila-yotgan asboblarning o'tkirligiga bog'liq. «Ustaning o'zi emas, balki uning ishlatayotgan asbobi usta», degan gap bejiz emas. Haqiqatan, asbob o'tmas bo'lsa, ish sekin boradi va sifatsiz bo'ladi.

Ganch o'ymakorlik asboblari sifatli po'latdan tayyorlanadi. Asboblari qalam ochish darajasida o'tkir bo'lishi kerak. Ular har xil — yirik qayroq va mayda qumqog'ozda charxlanadi. Asbob ikki qism — ushlagich va keskichdan iborat.

*Asboblarni charxlash esa uch bosqichda bajariladi.*

Mexanik charxlash, ya'ni qo'lda yoki toshda charxlash.

Burchak (faska) hosil qilish.

Mayda qumqog'ozda charxlash.

Qirovini tushirish uchun maxsus toshda charxlash.

Charxlanayotgan asbobni aylanayotgan charxga qattiq botirmaslik lozim. Asbobni 10— 15° qiyalikda, qattiq botirmasdan charxlash va bir xilda ushlash maqsadga muvofiq. Charxlanayotgan asbobni bir xilda aylantirish 30 sekund-dan oshmasligi lozim, chunki o'tkir qirrasi egilib ketadi. Shundan so'ng u kichik to'rtburchak toshda charxlanadi. Qayroq toshni biroz ho'llab, asbobni 10—15° qiyalikda ushlab, oldinga va orqaga olib-kelib charxlanadi. Asbob toshga bir necha bor olib borilgandan so'ng, ikkinchi tomoni o'girilib, o'tkir bo'lguncha charxlanadi. Charx-lashda qo'l asbob ustida o'zgarmasligi, masalan, harakat oldinga bo'lganda qo'l oldinga surilib ketmasligi, orqaga tortayotganda qo'l ko'taril-masligi lozim. Agar qiyalik biroz o'zgarsa — yuzasi tekis chiqmaydi. Charxlash kichik qayroqtoshda charxlash bilan tugaydi. Charxlash 10—15 minutdan oshmasligi lozim. Agar charxlash cho'zilib ketsa, unda keskich o'tmas bo'lib qolishi mumkin. Asbob charxlangandan so'ng, o'tkir yoki o'tmasligini tekshirib, ishni boshlash maqsadga muvofiq.

## 2.2. Gips rozetkalarining yasash usullari va ishlardan namunalar

O'tmishda ota-boblarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar kishini hayratga soladi. diet ellardan tashrif buyurgan sayohatchilar ham did bilan ishlangan naqshlarning umri boqiyiligini ko'rib lol qolmoqdalar. Binolarning pishiq-puxta, chidamli hamda mukammal qilib qurilganligi olimlarimizii binokorlar va arxitektorlarni hayratga soladi.

Qadimiy obidalarining va bezaklarning umri boqiyiligi shundaki, ota-boblarimiz yuqori sifatli, g'oyat chidamli hamda davr sinovlaridan o'tgan qurilish materiallari: yog'och, ganch, tuproqdan unumli foydalanganlar. Ular bu materiallarni qayerda va qanday qo'llanish sir-asrorini yaxshi bilganlar.

Ganch — mahalliy qurilish material bo'lib, uning rangi ko'kish yoki sarg'ish bo'ladi. Ganch turli joylarda turlicha nomlar bilan yuritiladi. Kavkazda «gaja», forsha «gaj», tojikcha «ganch», turkcha «urunak», o'zbekcha «ganch» deb yuritiladi. Ganch gips bilan tuproqning tabiiy aralashmasi bo'lib, uning tarkibida 40 — 70 foyizgacha gips bo'ladi. Ganch ikki xil: tabiiy va sun'iy bo'ladi. Tabiiy ganch katta xarsang tosh holida bo'lib, uni to'g'ridan-to'g'ri o'yib, yo'nib ustun, haykal va bezak sifatida foydalaniladi. Sun'iy ganch esa maxsus pechlarda qizdirilib, keyin maydalab tayyorlanadi.

Qadimda ganch tayyorlaydigan ustalar bo'lib, ularni «ganchkorlar» deb ataganlar. Ganchkor tabiiy ganch toshlarni xumdonda 120-150 daraja haroratda kunduzi 6-7 soat qizdirgan, so'ng ertalabgacha sovitib qo'ygan. Erta bilan ganch toshlar rmaxsus to'qmoqlar bilan maydalangan, so'ng g'alvir va elakdan o'tkazilgan. Bu ganch navlarga ajratilgan. Eng mayin, donachali ganch *gulganch* deb, ya'ni «gul o'yish uchun ishlatiladigan ganch» deb atalgan. Ganch qanchalik mayin bo'lsa, o'yma shunchalik nafis chiqqan. Mayin ganch nafis o'ymakorlikda, pardoz suvoqda ishlatiladi. Yirik ganch har xil suvoq, qora suvoq va g'isht terishda ishlatiladi. Yuqori haroratda qizdirish natijasida ganch tarkibidagi nam juda karnayib, quvvati oshadi. Ganch o'rniga alebastr ham ishlatiladi. U suvoq, g'isht terishda, ayrim hollarda esa gulganch

o'rnida ham ishlatiladi.

Ganch o'ymakorligi bilan shug'ullangan ustalar ganchning quvvatini qanchalik tez yoki sekin qotishiga qarab aniqlaydilar. Tajribali ustalar ganchni qo'lga olib qisib ko'rgan zahotiyoyq uning eski yoki yangiligini, quvvatini aytib bera oladilar. Odatda, ganchning quvvatini aniqlash uchun ozgina qorib, o'yib ko'radilar. Agar u juda quvvatli bo'lsa, ming martagacha suvda qorishtirishni talab qilishi mumkin. Ganchning juda ko'p xususiyatlari bo'lib, ulardan mohirona, omil-korlik va shoshilmay foydalanish kerak. Ganch qorish texnologiyasi uncha murakkab bo'lmasa-da, o'ziga xos nozik tomonlari bor. Ganch qadimda sirli lagan idishlarda qorilgan, hozir esa plastmassa idishlardan foydalaniladi. Ganch qorishning *tez ganch*, *soxtaganch*, *do'g'ob*, *xovonda* usullari bo'lib, ular o'ziga xos, nozik yoki murakkab bo'ladi. Qorishma tayyorlashda ushbu nozik jihatlarni e'tiborga olish ustaning muhim vazifasidir.

Tez ganch — tez qotuvchi ganch qorishmasi bo'lib, ganchkorlikda ravoq bog'lashda, suvoqda va har xil ishlarda ishlatiladi. Bu qorishmani tayyorlash uchun idishdagi suv ustiga ganch solinadi va tez qoriladi. Ganch ko'p aylanti-rilmaydi hamda tezda kerakli joyga ishlatiladi. Tez ganch qorishmasi tezlik bilan ishlatilmasa, u qotib qoladi hamda isrof bo'ladi.

Soxtaganch — qorilganidan keyin 30 minut atrofida qotmay turadi. Soxta ganch qorishmasini tayyorlash uchun idishdagi suvga elangan ganch sepib solinadi, bu suv yuzasi ganch bilan berkitilgunga qadar takrorlanadi. Bunda ganch suvga to'yib boradi. Usta shu soxta ganch qorishmasini bir chekkadan olib, kerakli joyga ishlatadi.

Do'g'ob usuli - biror yuzani yoki to'ldirish, yoki berkitish uchun ishlatiladigan suyuq qorishma. Idishga suv solinib, suv yuzi berkitilguncha ganch sepiladi. Bu ganch soxta ganchga qaraganda bir oz suyuqroq bo'ladi. Bu ganch berkitish yoki to'ldirish uchun ishlatiladi.

Xovonda — gul o'yishga mo'ljallab, kuchi ma'lum qadar kamaytirilgan ganch qoriladi. Uni tayyorlashning o'ziga xos tomonlari bor. Buning uchun plastmassa tog'oraga suv solinadi. Unga elangan mayda ganch ohista, shoshilmay

solinadi, suv yuzaga chiqib ketmasligi uchun ganch idish ostidan kaft bilan aylana shaklida aralashtiriladi. Tayyorlangan qorishma bir oz qota boshlagach, uni ishlatish mumkin. Ganeh qanchalik kuchli bo'lsa, shuncha ko'p qoriladi. Qadimda ustalar juda quvvatli ganchlarni ishlatganlar. Ular xovondani mohirlik bilan tayyorlashgani uchun ishlari bejirim, nafis va go'zal chiqqan. Ustalar quvvatli ganchni juda ko'p qorganlar, natijada ganch qorishma nafislashgan, mayinlashgan. Sekin va yumshoq holatda qotgan xovondaga ustalar shirach qo'shadi. Shirach uning quvvatini oshirgan. Ganch o'rniga gips ham ishlatiladi.

Gips - oq, rangsiz, shaffof, qoramtir yoki qora rangdagi mineral. U juda mo'rt bo'lib, suvda criydi. 80-90° haroratda qizdirilganda tarkibidagi suv bug'lanib kctadi. Agar 120—140° qizdirilsa, alcbastrga aylanadi. U qurilish material; undan qog'oz, sement sanoatida, tibbiyot va haykalta-roshlikda, o'ymakorlik va bo'yoq tayyorlashda ham foydalaniladi. Gi ps suvga chidamsiz. Gi psni namdan asrash uchun usti suv o'tmaydigan muhofaza pasta yoki bo'yoq bilan bo'yaladi. Gipsdan quruq suvoq devor toshlari, to'siq plita, qavatlararo yopmalar, karnizlar, tovush yutuvchi materiallar va yong'indan muhofaza-lovchi buyumlar yasaladi. Gips hozir ganch o'rnida ishlatilmoqda. O'zbekistonda, Markaziy Osiyo mamlakatlari vaboshqa yerlarda gips konlari bor.

Qadimdagips toshlari 200—250° qizdirilgan. hosil bo'lgan gips sekin qotib, quvvati oshgan. 400-750° haroratda qizdirilganda esa, u kuygan, bu *ytiproqsiz gips* deb ataladi. 200—250° dan past haroratda qizdirilgan ganchning quvvati past hisoblangan. Qadimda misrliklar mashhur ehromlarni qurishda gips ishlatganlar. Bu gips 800 darajada qizdirilib, asta-sekin sovutilgan. hozir bu texnologiya unutilib, bizgacha yetib kelmagan.

Alebastr — gipsning dag'alroq turi. Tez qotadi, qattiqligi gips vaganchdan qolishmaydi. Donachaiari yirikroq, oq va havorang tusda bo'ladi. U suvoq va boshqa ishlarda qo'llaniladi. Buning uchun alebastr elakdan o'tkazilib, suv bilan aralashtirilib, qorishma tayyorlanadi. U pechkada 80—90° qizdirilganda tarkibidagi suv yo'qola boshlaydi. Harorat 120—140 darajaga yetganda, u yetiladi. Ba'zan toza alebastrlardan o'ymakorlik ishlarini bajarishda foydalanilgan.



IX-X asrlarda pishirilgan g'isht keng qo'llana boshlagan. G'isht terishda loy o'rniga ganch ishlatilgan.

XIV-XV asrlarga kelib ganch, ajoyib texnologik xususiyatlarga ega bo'lgani uchun, binolarning qovurg'alarini mustahkamlashda, ya'ni hozirgi beton o'rnida ishlatilgan.

Ganch issiqni juda kam o'tkazadi. Uning bu xususiyatini bilgan me'morlar uylarning devor, shift, hattoki, polini zax o'tmasligi uchun ganch bilan suvaganlar. Qadimda qurilgan uy, masjid, madrasalar qishda pechkasiz, hech qanday elektr isitgichsiz issiq bo'ladi. Yozda esa bu xonalar salqin bo'lgan. Chunki devor qo'sh sinchli qilinib, orasida bo'shliq qoldirilgan, buning ustiga devor qalin ganch suvoq qilingan. Hozir esa beton uylar qishda sovuq, yozda esa qizib ketadi. Bu inson sog'ligiga, umuman, salbiy ta'sir etadi. Betonning o'z o'rni va ishlatish joyi bor. Ganchning ijobiy tomonlaridan yana bid — uning yengilligidir. Ganch betonga qaraganda 38— 40 foyiz yengil bo'lgani uchun har xil gumbaz va maxsus binolarni qurishda ishlatiladi. O'tmishda binolarning gumbaz va maxsus joylari, har xil quyma bezaklari faqat ganchdan qilingan.

Ganchning yana bir fizik-mexanik xususiyati — sifati yaxshiligidir. Xususan, ganch qotgandan so'ng torayish o'rniga kengayadi, bu esa yog'och konstruksiyalarni yanada mustahkam bog'lab turadi. Ganchning xususiyatlaridan yana biri — u yuqori bosimga chidamli, egiluvchan (mo'rt emas), ya'ni u qattiq zarbada ham sezilar-sezilmas darajada o'z-o'zidan amortizatsiya berish qobiliyatiga ega. Ganch bilan terilgan g'isht devor yoki ganch suvoq dahshatli zilzilalar bo'lganda ham unchalik zarar ko'rmaydi. Ganch tez yopishib qolgani uchun devor va g'ishtni sidirg'a suvash, shakl tayyorlash, o'yma naqsh ishlash, ustidan bo'yab, tasvir va naqsh tushirish qulay.

Ko'p risolalarda ganch suvga chidamsiz, ko'pincha binoning ichkarisida ishlatiladi, deyiladi. Lekin biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, chunki ota-bobolarimiz qadimda juda kuchli ganch tayyorlay olganlar. Shuning uchun ham ular binoning yomg'ir, qor tushadigan torn, gumbazlari g'ishtlarini ganch bilan terganlar. Ulardan hech qachon chakka o'tmagan. Ular, hattoki, hammomlarning ichki qismini ham

*kir qorishmasi* deb ataladigan ganch bilan suvaganlar. Ganch suvoq aslo ko'chib tushmagan.

Qorishmani tayyorlash va undan foydalanish quyidagicha bo'lgan. Bir chelak ohak, bir chelak qum, mayda ko'mir kukuni hamda qamish kuli qorishtirilgan. Bu qorishmani olovga qo'yib, 10-12 soat aylantirib, pishitishgan. Keyin u bilan hovuzlarni suvaganlar. Hovuzning kichik yoriqlari sutga qorilgan ganch bilan suvalgan. Bunday suvoq namgarchilikka uzoq chidagan. G'isht terishda va suvoq ishlarida ganchxok ishlatilgan. Uni tayyorlashda bir chelak alebastr yoki tezganch, bir chelak qum va bir chelak soz tuproq elanmasdan obdan aralashtirilgan. Hosil bo'lgan qorishma kerakli yuzaga kaft bilan chaplab surtilgan. Bu suvoqni ganchkor ustalar «kapganch» deb ataydilar. Ganch tuproqqa o'xshash qoramtir bo'ladi. Avvalgi ustalar ishdan chiqqan ganchlarni tashlab yubormasdan qayta ishlatgan. Chiqindi ganch qozonga solib qizdirilgan. Qayta ishlash natijasida ganch oldingi quvvatiga kelgan. Qayta ishlangan ganch suvoq va g'isht terishda ishlatilgan.

Ganch akustiklik xususiyatga ham ega. Ganch bilan suvalgan xonada tovush jaranglab chiqadi. Chunki ganchli devor tovushni yaxshi qaytaradi. Ganch bilan suvalgan katta zallar yorug' va akustiklik xususiyatiga ega. Shu bois ilgarilari katta zallarda mikrofonning keragi bo'lmagan. Ganchga mineral bo'yoqlar qo'shib, rangli ganch ham tayyorlangan. Ganch o'ymakorligida *qirma* ham ishlatilgan; bunda o'yilgan yerlar rangli qorishma bilan to'ldirilgan. Bu ruschada «ganchevaya mozaika» deb yuritiladi.

Naqsh turining eng kenjasi — qirmadir. Qirma ganchda o'yUgan chuqurchalarga rangli qorishma kiritiladi. Uning o'ziga xos xususiyatlari bor. U ko'p rangni yoqtirmaydi. Uning pardozi ham odatdagidek emas. Qirmada ko'p rang ishlatilsa, ish bosqichi o'shancha ortadi. Bunga sabab — nusxada bir-biriga yaqin bo'yoqlarning o'rinlari bir yo'la o'yilgan bo'lsa, rangli qorishmani quyganda u kirishi zarur bo'lmagan o'ringa tushib ketadi. Buning oldini olish uchun naqqosh oldin bir xil rang joyini o'yib bo'lgach, rangli qorishma quyadi va naqsh sathini tekislab qirib tashlaydi. Shunda bo'yoq kirgan chegaralar aniq va chiroyli chiqadi. Keyin yana qayta axta yordamida ikkinchi marta nusxa tushirilib, ikkinchi

bo'yoqning o'rni o'yiladi va rang beriladi, yana oldingisi singari naqsh sathi (yuzi) ochilguncha qiriladi. Uchinchi, to'rtinchi rangli qorishma kiritiladigan bo'lsa, ish xuddi shu tartibda takrorlanadi. Shuning uchun qirmada ranglar soni 2-3 xildan ortiq bo'lmaydi. Qirma yaxlitligi va rang turining kamligi bilan rangli naqshlardan yaqqol ajralib turadi.

Rangli ganch tayyorlashda oldinlari ustalar ko'mir kukunini tegirmonda maydalab, qizg'ish yoki jigarrang g'isht kukunini va boshqalarni qo'shgan. Hozir esa tayyor har xil rangli pigmentlardan foydalanilyapti.

Rangli pigment ganchga qancha ko'p qo'shilsa-da, ganch lining kuchini kesib, mo'tadil holga keltiradi. Mineral bo'yoq nisbati 1:10 dan oshmasligi kerak, aks holda tayyorlangan rangli ganchning quvvati pasayib ketadi. Odatda qirma uchun quruq qorishma tayyorlashda ustalar biror idishni o'lchov qilib, ganchga o'zlari xohlagancha rang qo'shib, quruqligida aralashtiradilar. So'ngra bu quruq aralashmani oz-oz qorib ishlatadilar. Oldindan kerakli miqdorda quruq aralashma tayyorlab olinmasa, uning rangi to'qlashib qolishi mumkin.

Qirmaning yana bir xislati shuki, quyosh nuri tushsa ham yaltiramay, bir xil mayinlikda ko'rinadi. Vaqt o'tishi bilan naqsh ustini chang bossa, uni qaytadan qirib, yangilash mumkin. Qirma pardozni ko'pincha Usta Shirin Murodov, Quli Jalilov va boshqalar qo'llaganlar.

Qadimdan g'isht teruvchi va ganch o'ymakor ustalar maxsus tayyorlangan shirachni ganchga qo'shib ishlatganlar.

Shirach — lotincha «eremurs», ruscha «keley». Shirach ganch o'ymakorligida va g'isht terishda qadimdan foydalanib kelingan. Shirachni ganchga qo'shishdan maqsad — ganch sekin qotishini va qotgandan so'ng toshdek qattiq bo'lib qolishini ta'minlashdir. 1933-yil arxeolog olimlar B.G.Zasipkin va V.P.Vyatkin O'zbekistondagi arxitektura yodgorliklarida terilgan g'isht va o'yma ganch qoldiqlarini tekshirib, ganchga maxsus tayyorlangan shirach qo'shib ishlatilganligini aniqladilar. Shirach qo'shilgan ganchning quvvati 45 foyizgacha oshgan. O'zbekistondagi arxitektura yodgorliklarining qariyb hammasi shirachli, baquvvat ganchdan ishlangan. Shuning uchun bu arxitektura yodgorliklari

monolitga aylanib, zilzilaga bardosh bergan. Qadimda shirach tayyorlaydigan maxsus ustalar bo'lgan. Suxoroda Sitorai Mohi Xosani bezashda maxsus usta o'sha yerda shirach tayyorlagan va Usta Shirin Murodovga yetkazib turgan. Bu shirach tosh oyna zaminli o'ymaga ishlatilgan. Shirach tayyorlaydigan usta qassoblardan buqacha yoki qo'yni payi va suyagini sotib olgan, keyin maxsus o'tlarga qo'shib, qozonda past olovda qaynatgan. Suyuqlik to'xtovsiz aylantirilib, qaynaganda hosil bo'lgan ko'piklar tez-tez olib tashlangan, chunki ko'pik olib tashlanmasa, tayyorlanayotgan shirachning quvvatiga putur yetgan. Bir tekis qaynatilgan va asta-sekin sovitib hosil qilingan shirachni maxsus idishda o'ymakor ustalarga yetkazib berganlar. Ustalar ganchga ma'lum miqdorda shirach qo'shganlar. Hattoki, bu shirachlar chet ellarga, Angliya va Shvetsiyaga sotilgan. Ganch sekin qotishi uchun ariq suvi, sirka qo'shganlar. Bunda ganchning quvvati bir oz kamaygan. Hozir ba'zi ustalar, masalan, Samarqand ganch o'ymakor ustalari ganchga shirach qo'shib ishlatyaptilar. Keying! yillarda shirach texnologiyasi juda keng qo'llanilmoqda.

Bino qismlari, ustunlar, haykalchalar, sharafa, muqarnas, hajmli naqsh va boshqa unsurlarni quyma usulida tayyorlash uchun sut, kamed, kazein, shirach va boshqa moddalar qo'shilgan. Bular ganchning quvvatini oshirgan, umrini uzaytirgan. Qadimgi ustalar yangi binoni kamida ikki yildan oshiqroq vaqt ichida bezaganlar. Chunki bino obdon qurishi va yerga yaxshi cho'kib, o'rinishi kerak bo'lgan. Aks holda bir necha yillardan keyin baquvvat qilingan bezaklar ham yorilib, ko'chib yoki to'kilib ketgan.





Naqsh








Qandil




Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri qurilishida ishtirok etgan ustalar. 1944-yil






Samarqand. Imom al-Moturidiy maqbarasi




Samarqand. Imom al-Buxoriy maqbarasi



Buxoro. Masjidi Kalon. XV–XVI asrlar







a




b



c



d



e




f



g



h




i




Oddiy naqsh namunalarining o'ymasi:  
a) 1-gul, b) 2-gul, c) 3-gul, d) 4-gul, e) 5-gul, f) 6-gul, g) 7-gul, h) 8-gul, i) 9-gul, j) 10-gul.





#### O'yma bosqichlari:

1. Ganch yuzasiga tushirilgan naqsh chegara chiziqlarini shuturgardonda o'yish.
2. Shuturgardonda naqsh zaminini o'yish. 3. Minqor yordamida zaminni qirib tekislash.
4. Shuturgardonda naqsh bo'rtiqlariga pardozi berish.



Oddiy naqsh  
kompozitsiyasini  
o'yish  
bosqichlari.

## UMUMIY XULOSA

Tasviriy san`atda, borliqni aks ettirish o`z-o`zidan paydo bo`lmadi. U inson paydo bo`lishi bilan shakllanib taraqqiy eta boshladi. O`rta asrga kelib o`zining eng yuqori cho`qqisini namoyon qildi. Evropa bu borada dynuo svili-zatsiyasiga o`ziga xos o`ringa ega. Zamonasining eng buyuk tasviriy san`at arboblari etishtirib berdi va shularning mehnati natijasida shakllandi.

Men o`zimning malakaviy bitiruv ishimda “Amaliy san`at to`garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi” haqidagi umumiy tushunchalarni bayon etdim. Shu bilan birga O`zbekistonimizning olamda tengi yo`q tabiati, ser jilo quyoshli kunlari, olamda tengsiz naqshinkor binolar-u, baland minoralari bilan mashhurdir. Bu mavzuimda, kelajak avlodlarimiz bo`lgan bolalar ongini, tafakkurini boyitish, tasviriy san`t shaydolarini shakllantirishdek, byuk maqsad sari intiladigan, zamonamiz tayanchlarini, yetuk shaxslarni yetishtirib berishdek mas`u-liyatli vazifaga o`z hissamni qo`shganimdan mamnunman. Ko`nglida tasviriy san`-atga bo`lgan ishtiyoqi baland kishilardan, hech qachon vatan xoinlari chiqmaydi.

Bunday kishilar, vatan kelajagi uchun uning gullab yashnashi uchun, qo`l-laridan kelgan barcha ishlarni qilishga, tayyordirlar. O`z bilim va zakovatlarini, namoyon qila olishlariga iymonimiz komildir. Men o`z malakaviy bitiruv ishimda oldimga qo`ygan maqsadimga erishdim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T., 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'qrisida"gi qonuni. -T., 1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. T., 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining Davlat ta'lim standarti, T.2003.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Q O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 9-sessiyasida so'zlagan nutqi. - T.:Sharq, 1997.- 53b.
6. Pavlov I. P. Psixologiya vo'sshego razuma.-M.: Prosvehenie, 4-e izd., 1987.-434 s.
7. Lebedev K. A. Aporii Zennona v razdumyax filosofov. QQ Filosofiya Vostoka i Zapada.- Sb.nauch. trudov – M: MGU.- S.117.
8. N.U.Abdullayev."San`at tarixi".-Toshkent,"O`qituvchi".1986.
9. Rubinshteyn L. S. Psixologiya lichnosti.-M.: Prosveshenie,1991-237 s.
10. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar.- T.: Moliya, 2003.-17b.
11. Sayidahmedov N. Pedagogika fani metodologiyasi yohud uning zamonaviy mazmuni haqida: Amaliyot va nazariyaQQ Ma'rifat.-2004,- 21 fevral.
12. Y.V.Shoroxov.Osnovi kompozitsii-Moskva."Prosveshenie".1976.
13. S.Abdirasulov,N.Tolipov,N.Oripova. Rang tasvir Toshkent- "O'zbekiston"-2006
14. Botir Boymetov Qalam tasvir "MUSIQA" nashriyot TOSHKENT-2006
15. B.Z. Azimova "Natyurmort tuzish va tasvirlash metodikasi"Toshkent – O`qituvchi-1984.
16. B.Z.Azimova ,R.Rajabov,S.F.Abdirasulov,Tasviriy san`atga oid atamalarning izohli luqati.Toshkent -1994.
17. S. Abdirasulov Tasviriy san`at atamalari. Toshkent- 2003
18. G.V.Beda. JIVOPIS. Moskva -1989.
19. L.O.Barsh. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.
20. B.S.Kuzin. Nabroski I zarisovki.-Moskva -1970.

- 21 A.P.Yashuxin. JIVOPIS. Moskva -1990.
- 22 X.Egamov.Bo`yoqlar bilan ishlash. –Toshkent . “O`qituvchi”1981.
- 23 R.Hasanov.”Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi”Toshkent.-  
“Fan”.2004.
- 24 A.Y. Terent`yev.Izobrajenie jivotnix I ptits sretstvami risunka I jivipisi.  
Moskva.-1980.
- 25 N.Oydinov. Rassom o`qituvchilar tayyorlash muammolari. Toshkent.-  
“O`qituvchi” –“Ziyo Noshir”, 1997.
- 26 M.Nabiyev. Rang shunoslik. Toshkent “O`qituvchi”, 1995.
- 27 N.M.Moleva.Vidayusheysiya russskiy xudojniki – pedagogi.  
Moskva ,1991.
- 28 N.Rastovtsev. Akademicheskiy risunok.Moskva,1985.
- 29 V.S.Kuziin. voprosi izobrazitel`nogo tvorchestvo.-Moskva.1971.

Navoiy davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi

**Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova**

“Amaliy san’at to’garaklarida gipsdan  
rozetkalar bajarish texnologiyasi” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga

## **T A Q R I Z**

Talaba Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova “Amaliy san’at to’garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunning eng dolzarb masalasi – o’quvchilar tafakkurini o’stirish muammosining yechimini topishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Malakaviy bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, malakaviy bitiruv ishining maqsadi, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati bayon qilingan.

Talaba malakaviy bitiruv ishida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi haqida umumiy tushuncha berishni, amaliy san’at usullarini bayon etishni va ganchkorlikka doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, jami 49 sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, maktab o’quvchilarining ganchkorlik haqidagi tushunchasini yaxshi o’zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida amaliy san’at o’quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi va umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida amaliy san’at darslarida ganchkorlik fanini o’rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e’tiborni



qaratgan. Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil-pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, ganchkorlik texnikalaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o'rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o'ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo'lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o'z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova tomonidan ayrim kamchiliklar ham uchraydi, jumladan:

1. Malakaviy bitiruv ishi matnida imloviy xatolar uchraydi. Masalan, 21, 23-betlar.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ganchkorlik metodlari to'qrisida bildirilgan fikrlarni yanada kengroq shakllantirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bildirilgan fikrlar, taklif va mulohazalar dissertatsiya ishining ilmiy qimmatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi talablariga to'liq mos keladi. Uning muallifi- Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova –“tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lim yo'nalishi ixtisosligi bo'yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

**Ilmiy rahbar:**

**P.f.d., *S.F.Abdullayev***

Navoiy davlat pedagogika instituti  
pedagogika fakultetining bitiruvchi kurs talabasi

**Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova**

“ Amaliy san’at to`garaklarida gipsdan  
rozetkalar bajarish texnologiyasi ” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga

## **T A Q R I Z**

Talaba Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova “Amaliy san’at to`garaklarida gipsdan rozetkalar bajarish texnologiyasi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi o`rta maktabda amaliy san’at fanining rivojlanishidagi o`ziga xos xususiyatlarini e`tiborga olgan holda yozilganligi bilan bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo`lib borishi bilan belgilanadi.

Talaba malakaviy bitiruv ishida ganchkorlik haqida umumiy tushuncha berishni, ganchkorlikni yechish usullarini bayon etishni va ganchkorlikni texnika va usullariga doir bir nechta ishlardan namunalar keltirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan.

Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat bo`lib, jami 49sahifani tashkil etadi.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy yangiligiga talaba, maktab o`quvchilarining ganchkorlik fanini yaxshi o`zlashtirishlari uchun ilmiy-nazariy jihatdan metodlari ishlab chiqilganligini, umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida tasviriylar san`at o`quv fanining imkoniyatlari aniqlandi va tahlil etildi hamda umumiy o`rta ta`lim maktab o`quvchilarida amaliy san’at darslarida ganchkorlik fanini o`rgatishning pedagogik asoslari, sharoitlari, omillari va sabablari aniqlanganligiga e`tiborni qaratgan.

Shu bilan birga tadqiqot ishini yozishda analitik tahlil, qiyosiy tahlil- pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov, amaliy san’at metodlaridan unumli foydalana bilgan.

Malakaviy bitiruv ishi matnini o`rganish shundan dalolat beradiki, dissertatsiyaning tuzilishi, ilmiy apparati puxta o`ylangan, pishiq. Maqsad va vazifalar ijrosi oqibatida qo`lga kiritilgan natijalar ishning umumiy xulosalarida ham o`z yechimini topgan.

Yuqorida bildirilgan ijobiy fikrlar bilan birgalikda malakaviy bitiruv ishi tadqiqotchi Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova tomonidan ayrim kamchiliklarga ham yo`l qo`yilgan, jumladan:

1. Nazarimizda, amaliy san`at o`qitishning birnecha dars konspektini 2-bobida batafsil keltirib o`tilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi.

2. Malakaviy bitiruv ishi matnida ayrim texnik xatolar uchraydi;

Umuman, yuqorida bildirilgan noaniqliklar tadqiqotchi Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova o`tkazgan tadqiqotning ilmiy qimmatiga putur yetkazmaydi, aksincha tadqiqot haqqoniy bajarilganligidan dalolat beradi.

Malakaviy bitiruv ishi mustaqil ravishda yozilgan, yakunlangan ilmiy tadqiqot bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi talablariga to`liq mos keladi. Uning muallifi- Xudoyberdiyeva Surayyo Xushvaqtova – “tasviriy san`at va muhandislik grafikasi” yo`nalishi ixtisosligi bo`yicha bakalavr darajasini olishga loyiqdir.

**Xatirchi tuman 11-sonli maktab o`qituvchisi: \_\_\_\_\_R.Mamatova**

# HIMOYA KUNI

## MBIni baholash mezon

| <b>Mavzuning<br/>aktualligi</b> | <b>Ishning mustaqil<br/>bajarilish darajasi</b> | <b>Amaliy<br/>ahamiyati</b> | <b>Yangi adabiyotlardan<br/>(Internet) foydalanish<br/>darajasi</b> |
|---------------------------------|-------------------------------------------------|-----------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| <b>12</b>                       | <b>32</b>                                       | <b>16</b>                   | <b>10</b>                                                           |
|                                 |                                                 |                             |                                                                     |
|                                 |                                                 |                             |                                                                     |
|                                 |                                                 |                             |                                                                     |
|                                 |                                                 |                             |                                                                     |

| Rasmiylashtirish<br>sifati | MBIning himoyasi | Jami | % |
|----------------------------|------------------|------|---|
| 10                         | 20               | 100  | % |
|                            |                  |      |   |
|                            |                  |      |   |
|                            |                  |      |   |

**DAK raisi:**

**DAK a'zolari:**